

MUSIQA OVOZ REJISSORLIGIDA AYOLLAR, GENDER NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL (IMKONIYATLAR, TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR)

Dadaxanova Muslimaxon Nabidjon qizi

O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI 1-kurs magistri

Mirzayev Akbar Abduraximovich

Ilmiy rahbar: dotsent

Anotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa ovoz rejissorligi sohasida ayollar ishtirokining gender nuqtayi nazardan tahlili keltiriladi. Tadqiqot davomida ushbu yo'nalishda ayollar uchun mavjud imkoniyatlar, ularning ushbu kasbga kirib kelishida duch keladigan to'siqlar hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Muallif tarixiy va zamonaviy misollar asosida ayollarning texnik sohalaridagi roli, jamiyatsdagi gender stereotiplari, ta'lim muassasalarida mavjud sharoitlarni tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada gender tengligini ta'minlash yo'lida ilg'or tajribalar, qo'llab-quvvatlovchi tashabbuslar hamda ijtimoiy ongni o'zgartirish zaruriyati haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu sohaga qizlarning qiziqishini oshirish va ayollar faoliyatini rag'batlantirishga doir takliflar ilgari suriladi.*

Аннотация: *В данной статье представлен гендерный анализ участия женщин в сфере музыкальной звукорежиссуры. Рассматриваются имеющиеся возможности для женщин, существующие барьеры на пути к профессиональной реализации в этой области, а также перспективы развития. На основе исторических и современных примеров автор анализирует роль женщин в технических профессиях, влияние гендерных стереотипов в обществе, условия в образовательных учреждениях и положение на рынке труда. Также в статье обсуждаются передовой опыт, поддерживающие инициативы и необходимость изменения общественного сознания для достижения гендерного равенства. В завершение предлагаются рекомендации по привлечению девушек в данную сферу и стимулированию их профессиональной активности.*

Annotation: *This article presents a gender-based analysis of women's participation in the field of music sound directing. It explores the opportunities available to women, the barriers they face in entering and advancing in this profession, and the prospects for future development. Drawing on historical and contemporary examples, the author examines the role of women in technical fields, the impact of societal gender stereotypes, the conditions within educational institutions, and the labor market context. The article also highlights best practices, support initiatives, and the need to transform public awareness to ensure gender equality. Finally, the study offers recommendations to increase young women's interest in the field and to promote their professional engagement.*

Kalit soʻzlar: *Gender tengligi, ovoz rejissorligi, gender stereotiplari, ayollar imkoniyatlari, kasbiy toʻsiqlar, innovatsion yondashuvlar, rivojlanish istiqbollari*

KIRISH

Musiqqa sanʼati insoniyat madaniyatining eng qadimiy va muhim turlaridan biridir. U inson his-tuygʻularini ifodalash, madaniy meʼrosni saqlash va ijodiy ifodani rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Musiqaning jozibasi shundaki, u nafaqat eshitish hissiyotiga taʼsir qiladi, balki inson ongini qalbini va ichki dunyosini boyitadi. Musiqqa texnologiyalarining rivojlanishi tufayli hozirda tovushni yozib olish hamda qayta ishlash imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Bu imkoniyatni aynan sanʼatning zamonaviy turlaridan biri boʻlgan “Musiqiy ovoz rejissyorligi” yoʻnalishida oʻrganish mumkin. Bu yoʻnalish mutaxassislari radio, televideniya, teatr, kino va tomosha tadbirlarida faoliyat olib boradilar. Soʻnggi yillarda sanʼat va madaniyat sohalarida ayollarning roli tobora oshib bormoqda. Biroq musiqqa ovoz rejissorligida bu jarayon sezilarli darajada kechikmoqda.

Musiqqa ovoz rejissyorligi — bu musiqiy asarlarning ovoz sifatini shakllantirish, yozish, qayta ishlash va yakuniy tovush koʻrinishiga olib kelish jarayonidir. Bu kasb texnik bilimlar, estetik did, ijodiy qarashlar va zamonaviy texnologiyalarni birlashtiradi. Ushbu maqolada aynan ayol ovoz rejissorlarining musiqqa sanʼatidagi oʻrni, ularning duch kelayotgan toʻsiqlari, mavjud imkoniyatlar va bu yoʻnalishda kelajak istiqbollari haqida yoritdim.

Asosiy qism. Musiqiy ovoz rejissorligi — ijodkorlik va texnologiyaning uzviy uygʻunligidir. Bu sohaga oid mutaxassislarning musiqiy kompozitsiyaning muvozanatini, tovushlar dinamikasini, sifatli yozuv jarayonini boshqaradilar. Zamonaviy musiqqa sanʼati raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bogʻliq boʻlganligi sababli, musiqiy ovoz rejissorining roli yanada muhim oʻrin tutadi.

Barchamizga sir emas, dastlab bu soha erkaklar tomonidan egallangan texnik yoʻnalishlardan biri sifatida qaralgan. Ammo XX asrning oxirlaridan boshlab, ayollar ovoz rejissorligi sohasida ham oʻz oʻrnini egallay boshladilar. Jahon sahnasida Leslie Ann Jones, Trina Shoemaker kabi ayol musiqqa ovoz rejissorlari oʻz ishi bilan nafaqat mukofotlarga sazovor boʻlishdi, balki kelajak avlodga ilhom manbai boʻlishdi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Oʻzbekistonda esa bu sohada faoliyat yuritayotgan ayollar soni hanuzgacha cheklangan boʻlsa-da, ularga boʻlgan eʼtibor oshib bormoqda. Bugungi kunda musiqqa sohasida ishlayotgan ayol musiqqa ovoz rejissyorlari soni oshib bormoqda, ammo ularning aksariyati soyada qolmoqda. Koʻp hollarda ularning mehnati xonanda yoki musiqachi bilan bogʻliq ijodiy jarayonlarda yetarlicha tan olinmaydi. Bu holat esa ularning ommaviy eʼtirofga erishishini sekinlashtiradi.

Oʻzbekistonda ayol musiqqa ovoz rejissorligi mutaxassislari koʻproq mustaqil studiyalarda, ijodiy guruhlarda, televideniya, radio yoki media kompaniyalarda

faoliyat yuritmoqda. Albatta, bu o'zbek qadryatlari va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ayollar uchun qulaydir. Ammo bu ba'zan ayol musiqa ovoz rejissyorlarining hayotda o'z o'rnini topishi va ayniqsa o'ziga munosib, o'zi qiziqqan kasb yo'nalishida faoliyat olib borishida to'siqlarga uchraydi. Bu borada bir necha muammolarni tahlil qilsak:

1. Gender stereotiplari: "Texnika erkaklarga xos" degan qarash hali ham mavjud
2. Imkoniyatlar chegaralanganligi: Ayollar uchun maxsus grantlar, kurslar kam.
3. Tarmoqdagi ko'rinmas mehnat: Ayol rejissorlar ko'pincha yordamchi rolda qolib ketadi.
4. Tajriba almashinuvi yetishmasligi: Mentorlik dasturlari deyarli yo'q.

Bu muammolarni sekin astalik bilan bartaraf etilsa, O'zbekistonda ayol musiqa ovoz rejissorlarini ham o'zni va ijodiy ishlari yuzaga chiqadi. Bu borada bir qator taklif va yechimlarni ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

1. Ayollar uchun maxsus ta'lim dasturlari: Ovoz rejissorligi bo'yicha gender neytral yoki ayollar uchun ixtisoslashtirilgan kurslar joriy etish.

2. Ustoz-shogird tizimi: Soha mutaxassislaridan iborat ayol mentorlar tarmog'ini yaratish.

3. Medialarda targ'ibot: Ayol ovoz rejissorlarning muvaffaqiyatli ijod faoliyatini ommaga yetkazish.

4. Texnologik imkoniyatlardan foydalanish: Onlayn kurslar, master-klasslar orqali tajriba almashinuvini kengaytirish.

Men bo'lajak ayol musiqa ovoz rejissori sifatida shuni ayta olamanki, aynan bu sohada faoliyat yuritadigan ayol ijodkorlarni ijodiy ishlari o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Ayollar ko'pincha emotsionallik, nozik tovush qatlamlari va musiqaning ruhiy ta'siriga ko'proq urg'u berishlari sir emas. Ular tovush orqali atmosferani his qilishga intilishadi. Ayol musiqa ovoz rejissyorlari, ijtimoiy bosim sabab, ba'zida "xatoga yo'l qo'ymaslik" uchun ehtiyotkorroq bo'lishadi, bu esa ularni mukammallikka intilishga undaydi. Erkaklarda esa ko'proq aniqlik, texnik mukammallik yoki tajriba elementlariga urg'u berishi mumkin, lekin bu har doim ham shunday degani emas. Ayollar ko'proq hamkorlikka asoslanadi, ya'ni xonanda yoki musiqachining his-tuyg'ularini inobatga olib, jarayonni moslashuvchan olib borishga moyil bo'lishlari mumkin. Erkaklar esa ba'zida boshqaruvchi, ya'ni o'z qarashlarida qat'iy sodiq qolgan holda ish yuritishlari mumkin. Erkak musiqiy ovoz rejissorlari esa ba'zan tajribaga, yangilikka, "qolipdan chiqib ketish"ga ko'proq jur'at qiladilar. Ayol ovoz rejissorlar ishlagan treklar ko'pincha shaxsiylik, hissiyot, hayotiy voqealar bilan boy bo'ladi. Erkaklar esa ko'proq nazariy yondashuv, amaliy tajriba yondashuvni afzal ko'rishlari mumkin. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerak: Har bir inson — individual ijodkor. Genderdan qat'i nazar, ijodiylik uslubi shaxsiy tajriba, ta'lim, madaniyat, xarakter va dunyoqarashga bog'liq. Ijodiy jarayon — bu insonning estetik didi, tajribasi, hissiyotlari va dunyoqarashi ifodalanadigan murakkab hodisadir. Musiqiy

ovoz rejissyorligi esa bu ijodning texnik jihatlar bilan uyg'unlashgan ko'rinishi bo'lib, unda tovush sifati, emotsional muvozanat va musiqiy tafsilotlar muhim rol o'ynaydi. Ayol va erkak ovoz rejissyorlarining ijodiy yondashuvida esa, ayrim hollarda, ijtimoiy va psixologik omillar tufayli sezilarli farqlar kuzatiladi.

Dunyo miqyosida tan olingan ko'plab ayol musiqa ovoz rejissorlari bor va ularning ijodiy ishi nafaqat texnik, balki san'at tarixiga ham katta hissa qo'shgan. Bulardan; Leslie Ann Jones (AQSh), "Grammy" mukofoti sovrindori, San-Fransiskodagi "Skywalker Sound" studiyasining musiqiy ovoz rejissyori. U klasik musiqadan tortib, jaz, film saundtreklari va rokgacha bo'lgan keng janrlarda ishlagan. Ayollar uchun musiqa ovoz rejissorligi san'atida o'rnak bo'lgan. Trina Shoemaker (AQSh), Grammy mukofoti olgan birinchi ayol ovoz rejissori. Sheryl Crow, Queens of the Stone Age, Emmylou Harris kabi taniqli san'atkorlar bilan ishlagan. U ayollar musiqa ovoz rejissorligi san'atida ham texnik darajada erkaklar bilan teng bo'lishi mumkinligini amalda isbotlagan. Susan Rogers (AQSh), Musiqa ovoz rejissyori, Prince bilan ishlagan afsonaviy musiqa ovoz rejissyori. Keyinchalik ilmiy faoliyatga o'tgan va "Berklee College of Music"da ishlagan. U 1980-yillarda pop-rok va funk janrlarini texnik jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan va hozirda musiqa psixologiyasi va tinglovchilarning tovushga bo'lgan reaksiyasini ilmiy o'rganmoqda. Ayol sifatida aynan bu yo'nalishda yetakchilikga erishgan ilk musiqiy ovoz rejissorlaridan biri. Olga FitzRoy (Buyuk Britaniya), taniqli britaniyalik musiqiy ovoz rejissyori. Coldplay, Muse, Paul McCartney, George Michael bilan ishlagan. Brit Awards va boshqa mukofotlar sohibasi. U professional faoliyat bilan birga gender tengligi va oilali ayollar huquqlari uchun faollik bilan shug'ullanadi.

Musiqa san'atida ishlayotgan ayollar uchun qonunchilikka o'zgarishlar kiritilishi uchun harakat qilgan. K.J. Blessy (Hindiston), Yosh hind ayol musiqiy ovoz rejissori. Hind musiqasida ayollar soni nihoyatda kam bo'lgan sohada o'z o'rnini topgan. Ayollar uchun aynan bu sohada professional imkoniyatlar bo'lishi kerakligini faol targ'ib qiladi.

Ayol musiqa ovoz rejissorlarining erkaklarga qaraganda o'ziga xos ijodiy yondashuvi ko'pincha bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Bu farqlar tabiatan "yaxshi-yomon" degan mezonlarda emas, balki shaxsiy dunyoqarash, emotsional sezuvchanlik va tajribaning o'ziga xosligi bilan izohlanadi. Ayollar, ko'pincha musiqada his-tuyg'uni yetkazishga ko'proq e'tibor berishadi. Ular uchun yozib olish yoki qayta ishlash bu shunchaki texnik jarayon emas, balki hissiy voqelikni ifodalovchi san'at shaklidir. Ular tovush yaratishda, ovozning tiniqligi, tabiiy chuqur rezonansli effektlardan foydalanish keng urg'u beradilar. Masalan, Emily Lazar ovozni "insonning yuragidan kelgan tovush" sifatida qaraydi. Ayol musiqa ovoz rejissorlari ohangda nozik tomonlariga e'tibor berishadi. Tovushlarning bir-biriga ta'sirini his qilish, har bir elementni sezilarli qilib qo'ymasdan uyg'unlashtirish, tovush balansini ishlashda tinglovchini charchatmaydigan qilib yaratish. Bu uslubni Trina Shoemaker

ishlarida ko'rish mumkin: uning ijodi murakkab bo'lsa-da, juda oson eshitiladi va tabiiy ohangda qoladi. Ayol musiqa ovoz rejissorlari ko'pincha tinglovchini: nima his qilishi mumkin?, tovush unga qanday ta'sir qiladi? degan savollar asosida ish yuritadilar. Masalan, Susan Rogers Prince bilan ishlaganida, "Tovush – bu tinglovchining ongini boshqarish vositasi" degan tamoyil asosida ish yuritgan. Ko'plab ayol ovoz rejissyorlar xonanda, bastakor va prodyuser bilan faol ijodiy suhbat olib boradi.

Ular musiqachining ichki holatini his qilishga intiladi. Bu yondashuv ko'pincha yumshoq, hissiy jihatdan to'liqroq musiqa yaratishga olib keladi. Masalan, Marcella Araica har bir trekda san'atkorning "ichki ovozi"ni chiqarib berishni maqsad qiladi, texnik jihatdan emas, ruhiy jihatdan ham uni eshitishga harakat qiladi. Xulosa qilib aytganda, musiqiy ovoz rejissyorlar uchun musiqa faqat mijoz uchun emas, shaxsiy ifoda vositasi hamdir.

Ular o'z ovozlari boshqalar orqali ham eshittirishga harakat qiladilar. Ayol musiqa ovoz rejissorlarining bu sohadagi faoliyati nafaqat kasbiy tajriba, balki ijodiylik, sezuvchanlik va insoniy qadriyatlarning texnika bilan uyg'unlashgan ifodasidir.

Ularning ijodiy qarashlari erkak musiqa ovoz rejissorlarnikidan ko'p hollarda farq qiladi — bu farqlar emotsional chuqurlik, tinglovchi psixologiyasiga asoslangan yondashuvda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayol ovoz rejissorlar tovush dizaynini shunchaki texnik jarayon emas, balki hissiy tajriba, ichki dunyo va shaxsiy ifoda vositasi sifatida qabul qilishadi. Chet el tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, Leslie Ann Jones, Emily Lazar, Trina Shoemaker, Mandy Parnell kabi ayol ovoz rejissorlar musiqa san'atida muhim o'ringa ega bo'lgan. Ularning professional yondashuvi orqali yaratilgan musiqa nafaqat texnik, balki hissiy va ruhiy mukammallikka erishgan. Bu esa, ayollar ovoz rejissoraligi faqat gender tengligi masalasi emas, balki musiqaning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shuvchi omil ekanini ko'rsatadi. Shu bois, ayollarni bu sohada qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini rivojlantirish va jamiyatdagi bu sohada yuzaki qarashlarni yengib o'tish nafaqat dolzarb, balki zaruriy qadamlardan biridir. Ayollar musiqiy ovoz rejissorligi bu faqat kasb emas, bu musiqaning boshqa, nozik va emotsional qatlamini ochishdir. Kelajakda bu qatlamlar yanada ko'proq eshitilishi, qadrlanishi va baholanishi uchun imkoniyat yaratish bizning jamiyatimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Xulosa. Musiqa ovoz rejissorligi sohasida ayollar ishtiroki hali ham yetarli darajada emasligi, bu holatga ko'p jihatdan gender stereotiplari, texnik yo'nalishlarga nisbatan ijtimoiy munosabat va ayollar uchun imkoniyatlarning cheklanganligi sabab bo'layotgani aniqlanmoqda. Ayollar ushbu sohada o'z o'rnini topishda nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarga, balki ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ham muhtoj. Ta'lim tizimida genderga xos yondashuvlarni yo'q qilish, ijobiy namunalarning ko'paytirilishi va ommaviy ongni o'zgartirishga qaratilgan tashabbuslar bu yo'nalishda muhim o'rin

tutadi. Kelajakda musiqa san'atida yanada inklyuziv va teng imkoniyatlarga asoslangan muhitni shakllantirish orqali ayollarning ovoz rejissorligi sohasidagi ishtirokini kengaytirish mumkin. Buning uchun davlat siyosati, ta'lim muassasalari va soha ichidagi ilg'or mutaxassislar hamkorligida kompleks yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Strong, Catherine (2019). Gender Inequality in Music Production: A Comparative Analysis. Routledge.
2. Sterne, Jonathan (2012). The Sound Studies Reader. Routledge.
3. Women's Audio Mission (2021). Industry Report on Gender Diversity in Audio Engineering. www.womensaudiomission.org
4. Lind, R. A. (2016). Race/Gender/Class/Media: Considering Diversity Across Audiences, Content, and Producers. Pearson.
5. Koskoff, Ellen (2000). Music and Gender: Perspectives from the Mediterranean. University of Chicago Press.
6. UNESCO (2022). Gender Equality and the Creative Industries: A Global Perspective. www.unesco.org
7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'at instituti ilmiy jurnali, turli sonlar (2020–2024 yillar).